

# DARS JARAYONIDA VA UNDAN TASHQARI TADBIRLARDA O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANISHIDA HAMDA UNING KASB EGALLASHIDA O'RSTA UMUMIY TA'LIM MAKTABIDAGI TARBIYANING YETAKCHI AHAMIYATI

Zaripova Gulbahor Komilovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, p.f.n.

dersuzala1972@gmail.com

Telefon: (99897) 280-72-01

**Kalit so'zlar:** o'quvchi shaxsi, tarbiya, ma'naviy, axloqiy, kasbiy kamolot, jamiyat talablari, tarixiy tajriba, ma'naviy-axloqiy sifatlari, o'zaro dialektik bog'liq jarayonlar, pedagogika fani, ijtimoiy rivojlanish, kasb-hunar o'rgatish, mакtab-maorif sohasi, ta'lism-tarbiya, insoniy xislatlar.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada dars jarayonida va undan tashqari tadbirlarda o'quvchi shaxsini shakllanishida hamda uning kasb egallashida o'rta umumiy ta'lim maktabidagi tarbiyaning yetakchi ahamiyati haqida nazariy va amaliy tadqiqotlar yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanish ishlari yoritilgan.

**Ключевые слова:** личность ученика, образование, духовно-нравственная, профессиональная зрелость, потребности общества, исторический опыт, духовно-нравственные качества, взаимодиалектические процессы, наука педагогика, общественное развитие, профессия - профессиональная подготовка, школьное образование, воспитание, человеческие качества.

**Аннотация.** В данной статье освещены научные исследования, проведенные в области теоретических и практических исследований о ведущем значении обучения в средней общеобразовательной школе в формировании личности учащегося в ходе урока и внеклассной деятельности.

**Key words:** student personality, education, spiritual and moral, professional maturity, needs of society, historical experience, spiritual and moral qualities, interdialectical processes, science pedagogy, social development, profession - vocational training, school education, upbringing, human qualities.

**Annotation.** This article highlights scientific research conducted in the field of theoretical and practical research on the leading importance of education in a secondary school in the formation of a student's personality during the lesson and extracurricular activities.

Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida shaxsning kasb egallashida muhim rol o'ynaydi. Tarbiya har qanday jamiyatning ajralmas yo'ldoshi, uning rivojini tezlashtiruvchi katalizator hisoblanadi. Bunda tarbiya o'zining katalizatorlik funksiyasini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki

shaxsnинг ма’naviy, axloqiy, kasbiy kamoloti orqali amalga oshiradi. Shaxsnинг jamiyat talablariga muvofiq shakllantirish orqali ijtimoiy buyurtma bo‘lgan davlat talablarini unga singdirib, uning kasbiy va shaxsiy jihatdan kamolotini ta’minlaydi. Shaxsnинг ма’naviy, axloqiy, kasbiy kamoloti o‘z-o‘zidan emas, balki ma’lum omillarni o‘zaro uyg‘un holda shaxs kamolotiga pedagogik yo‘naltirishga bog‘liq. Bu esa pedagogika oldiga yangi 5 dolzarb masalalarни qo‘yib, uning tarkibi, maqsad va vazifalari, predmetining o‘zgarishiga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining ehtiyoji sifatida paydo bo‘lgan pedagogika yaxlit ta’limot tarzida o‘zining bir-biriga bog‘liq: uning umumiylashtirilishi (didaktika), tarbiya nazariyasi hamda maktabshunoslik (hozirgi vaqtida boshqarish pedagogikasi) tarkibiy qismlardan iborat. Jamiyat rivojining ehtiyoji sifatida paydo bo‘lgan bu fanlar uning taraqqiyot darajasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Bu o‘zgarish uning hamma sohasi (predmeti) va tarkibiy qismlariga ham taalluqlidir. Shuning oqibatida uning maktabshunoslik qismi bazasida hozirgi kunda yangi bir fan – boshqarish pedagogikasi fani shakllandi.

Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy rivojlanish qancha tezlashsa, shaxsnинг ма’naviy-axloqiy sifatlariga bo‘lgan talab ham shuncha oshadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan shaxs kamoloti bir-biriga to‘g‘ri mutanosib bo‘lib, ular o‘zaro dialektik bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Bunda dialektikani shunda ko‘ramizki, jamiyat taraqqiyoti shaxs kamolotiga har tomonlama ta’sir qilib, unga yangicha talab qo‘yadi, o‘z navbatida shaxsnинг kamolot darajasining oshishi jamiyat rivojini tezlashtiradi. Bu ham o‘z navbatida jamiyat va shaxs rivojining qonuniyati insonga yangi sifatlarni shakllantirish, uni ma’naviy va kasbiy jihatdan takomillashuvini taqozo qiladi. Buning oqibatida ko‘pgina yangi fanlar paydo bo‘lmoqda. Agar bu jarayonni pedagogika fani misolida ko‘radigan bo‘lsak, keyingi o‘n yilliklarda umumiylashtirilishi (maktab pedagogikasi) bazasida 10 dan ortiq pedagogik fanlar tizimi paydo bo‘lib, ular jamiyatda yashash huquqini olib, inson ta’lim-tarbiyasida o‘z o‘rnini egallab kelmoqda. Bular maktabgacha ta’lim pedagogikasi, oila pedagogikasi, xalq pedagogikasi, qayta tayyorlash va malaka oshirish pedagogikasi, umumiylashtirilishi, kasbhunar o‘rgatish (kasb mutaxassisligi) pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, defektologik pedagogika (kar soqov, aqliy zaif, ko‘zi ojizlarni o‘qitish, tarbiyalash pedagogikasi), qiyosiy pedagogika, harbiy pedagogika, axloq tuzatish pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika va h.k. hozirgacha pedagogikaning bunday tarmoqlanish jarayoni tugagan emas.

Agar biz jamiyatning bundan oldingi 20-30 yil oldingi davriga nazar solsak, faqat umumiylashtirilishi (maktab pedagogikasi) bazasida 10 dan ortiq pedagogik fanlar tizimi paydo bo‘lib, ular jamiyatda yashash huquqini olib, inson ta’lim-tarbiyasida o‘z o‘rnini egallab kelmoqda. Bular maktabgacha ta’lim pedagogikasi, oila pedagogikasi, xalq pedagogikasi, qayta tayyorlash va malaka oshirish pedagogikasi, umumiylashtirilishi, kasbhunar o‘rgatish (kasb mutaxassisligi) pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, defektologik pedagogika (kar soqov, aqliy zaif, ko‘zi ojizlarni o‘qitish, tarbiyalash pedagogikasi), qiyosiy pedagogika, harbiy pedagogika, axloq tuzatish pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika va h.k. hozirgacha pedagogikaning bunday tarmoqlanish jarayoni tugagan emas.

Hozirgi kunda axborotlashgan jamiyatda yashar ekanmiz, jahonni global tarzda ijtimoiy tarmoqlar, internet tarmoqlari kamrab olgan ekan har doim, zarur bo‘lganda har lahzada ta’lim-tarbiya mamlakat prezidentidan boshlab hamma toifadagi rahbarlar, yozuvchilar, madaniyat va san’at, jismoniy tarbiya, sport sohasidagi xodimlar, sud, prokuratura, militsiya xodimlari, ko‘p mingli o‘qituvchilar va ota-onalar, mahallalar, davlat va jamiyat tashkilotlari shug‘ullanadigan umumjamiyat ishiga aylandi. Keyingi yillar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, insonni butun umri davrida tarbiyalash lozim. Ammo, inson hayotining turli davrlarida uning ta’lim-tarbiyaga ehtiyoji va munosabati turlicha bo‘ladi. Yoshligida bilim, hunar o‘rganib jamiyatda o‘z o‘rnini egallahni ko‘zlasa, katta yoshdagilar farzandlarini tarbiyalash, o‘zlarini shaxs sifatida ma’naviy-ma’rifiy o‘stirish, malakalarini takomillashtirish, yangi kasb egallah nuqtayi nazaridan pedagogikaga yondashadilar.

Shunday qilib, jamiyat kishilarining pedagogikaga munosabatlari keskin o‘zgarib, u har kimning hayotida muhim rol o‘ynamoqda. Bir vaqtlar u faqat ota-onalar, o‘qituvchilar mulki bo‘lib, boshqalar uchun sir («narsa o‘zida») bo‘lgan bo‘lsa, hozir hammaga kerak («biz uchun kerak narsa»)ga aylandi. Bu jarayonlar haqida fikr yuritar ekanmiz, uning sabablariga ham e’tibor berish lozim. Eng avvalo ta’lim-tarbiya va uning nazariy asosi hisoblangan pedagogikaning tarmoqlari asosida jamiyat va kishilarning ehtiyojlari yotishini qayd qilmoq kerak. Pedagogikaning tarmoqlanishi va ta’lim-tarbiyaning butun jamiyat doirasida ta’sirining zo‘rayib borishi oqimida tarbiyaning o‘rni alohida namoyon bo‘lmoqda. Buni o‘ziga xos sababi bor. Ta’lim bilan tarbiya birligida tarbiyaning o‘rni shu bilan belgilanadiki, maktab o‘quvchisi, o‘quvchi o‘rgangan bilimlarini qanday maqsadga – ezgulik, go‘zallik, moddiy-ma’naviy boyliklar yaratib, fan cho‘qqilarini egallab, jamiyat rivojiga hissa qo‘sishgami, yoki vayronagarchilik, terrorizm, go‘zalliklar va odamlarni xarob qilishgami? Buni insonning tarbiyalanganlik darjasini belgilaydi.

Tarbiya bilimlarni ishonch, e’tiqodga aylantirib, shaxsga undan foydalanish yo‘nalishini belgilab beradi. Shuning uchun, mustaqillik sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohoti, uning modeli markazida inson shaxsini barkamol qilib tarbiyalash bosh maqsad qilib qo‘yilgan. «Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzlusiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs-fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi» [1, 42]. Bundan ko‘rinadiki, tarbiyaga jiddiy qarash zarur. Tarbiya eng avvalo kishilarga jamiyatda yashash, ijtimoiy sifatlarni egallab olishlarining eng ta’sirchan vositasidir. Tarbiya kishilarning ijtimoiy munosabatlar tizimida ishtirok etib, bir-birlariga ta’sir qilib, insoniy xislatlarni egallab olishlariga yordam beradi. Insonni olam va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarini va aloqadorlikni tushunib, shu asosda faoliyat ko‘rsatishga o‘rgatadi.

Demak, tarbiyaga shunchaki bir o‘tkinchi hodisa deb qarab bo‘lmaydi. Tarbiya jamiyatda abadiy davom etadigan uning funksiyasi sifatida o‘z tarkibiy tuzilishi: maqsad moddiy baza, prinsip, qonuniyatlari va metodlari, shakl va vositalariga, subyekt va obyekti,

boshqarish va natijaga ega bo‘lgan yaxlit pedagogik tizimdir. Boshqa ijtimoiy tizimlardek tarbiya ham uni tashkil qilishda ma’lum qonuniyatlargacha rioxasi qilishni zarurat qilib qo‘yadi. Jumladan, pedagogika va psixologiya fanlari inson shaxsini shakllanishi 4 omilga bog‘liqligini tasdiqladi. Bular: irsiyat, muhit, tarbiya va shaxs faolligi. Bular birligida muhim hisoblanadi.

Shaxs shakllanishida keltirilgan omillarning birligini qator misollarda ko‘rish mumkin. Chunonchi, kishilarining tabiiy yashash sharoitidagi va turmushi-hayot tarzidagi o‘zgarishlar ularning shaxsiy sifatlarining o‘zgarishi, o‘zaro munosabatlarining o‘zgarishiga olib keladi. Shaxs shakllanishida obyektiv va subyektiv omillarning dialektik birligi uning obyektiv yashash sharoiti bilan subyektiv tarbiyaviy faoliyatining yaxlit birgalikda qarashni taqozo qiladi. Ijtimoiy muhit shaxs yashash sharoiti shakllaridan bo‘lib, tarbiya undan ajralmasdir. Ular o‘rtasidagi munosabat tarixiy taraqqiyotda doimo o‘zgarib kelgan. Ibtidoiy jamiyatda inson mohiyati uning tabiiy yashash sharoiti bilan belgilangan bo‘lsa, uning ijtimoiylashuvining tezlashuvi, hayotda aqliy-ongli faoliyat rolining oshishi, subyektiv omil hisoblangan tarbiyaning ahamiyatini oshishiga va yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘tarilishiga olib keldi.

Jamiyatning tarixiy taraqqiyotiga nazar solsak, uning rivojlanishi tarbiyaga bog‘liq (ma’lum ma’noda uning mahsuli) hamdir. Hozirgacha bo‘lgan jamiyatlar tarixi va mustaqillik sharoitida tarbiyaning o‘rni borgan sari jamiyat hayotida oshib borishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, uning jamiyat hayotidagi o‘rni tarixning burilish davrida, eski tuzum yangi bir ijtimoiy tuzum bilan almashinayotganda oshadi. Buning boisi shuki yangi tuzum tarbiyadan o‘z mafkurasi axloqi, dunyoqarashi, psixologiyasi, yuridik-siyosiy talablarini, qolaversa, iqtisodiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash vositasi sifatida foydalanadi.

Agar tarbiyaning inson shaxsining omillari tizimida belgilaydigan bo‘lsak, u irsiyat va muhitning ta’sirini shaxs shakllanishi yo‘nalishiga, aniqroq qilib aytsak, jamiyat o‘quvchilariga muvofiqlashtiruvchi yo‘naltiruvchi rol o‘ynaydi. Qisqacha qilib aytadigan bo‘lsak, tarbiya inson shaxsiga tabiiy sharoit va uning ichki rivojlanishidagi sog‘lig‘i, ruhiy rivoji, salomatligi, nutq rivoji kamchiliklari, harakat organlaridagi normal holatdan orqada qolishini tarbiyaviy mashqlar bilan oldini oladi. Jismoniy, ruhiy, aqliy kamolotdagi kamchiliklarni tarbiyaviy tadbirlar bilan normallashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, inson yashayotgan joydagi kishilar munosabatidagi kamchiliklarning yoshlarga yuqmasligini oldini oladi. Shaxs faolligi shunda namoyon bo‘ladiki, o‘quv yurtida o‘quvchi o‘qish, ijtimoiy ishlarga ishtirok etish jarayonida tengqurlari va o‘qituvchilar bilan o‘ziga xos pedagogik munosabatlar shakllanadi. O‘quvchining shaxsiy sifatlari va kasbiy malakalarini yuksak rivojlanishida munosabatlar tizimida faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi faolligi shaxsining kamoloti uchun boshqa omillar tizimida o‘ziga xos xususiyatga ega. Faollik o‘quvchidan tanlagan sohasida kuchli, ta’sirchan faoliyat ko‘rsatishni taqozo qiladi. Faollik insonda o‘z sohasini, o‘zini o‘rab olgan muhitni uning o‘qish va ijtimoiy ishda faol ishtirok etishida namoyon bo‘ladi. Faollik shaxsga xos xislat bo‘lib, kishilar, atrof muhit, kasb

egallahshdagi harakatlari bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi. O’quvchi faolligida impulsiv (yetarli anglanmagan) va anglangan holatlar bo‘lishi mumkin. Boshda faollik o‘zini anglash va o‘z ehtiyojini qondirish uchun atrof muhitdagi narsa, predmetlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O’quvchi o‘zini anglashi va o‘z kasbining egallahshidagi mas’uliyatini tushunishi bilan faollik anglangan yo‘nalish oladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o’quvchilarning shaxsiy faolligi to‘g‘risida fikr yuritar ekanmiz, kuzatishlar uni qator omillarga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Inson shaxsining shakllanishida bu omillar yaxlit tizim sifatida, o‘zaro bog‘liqlikda ta’sir ko‘rsatadi. Ammo, bunda ularning ta’siri bir-biriga mutlaq teng bo‘lmay, o‘zgaruvchan xarakterga ega.

Ijtimoiy taraqqiyot xarakteriga qarab ularning o‘rnii va ta’sir darajasi o‘zgaruvchan bo‘ladi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, bular tarbiya tizimida ijtimoiy muhit belgilovchi bo‘ladi. Muhitdagi o‘zgarishlar – kishining yashash sharoiti va tarzi, uning ruhiga, xulq-atvoriga, mehnat faoliyatiga munosabatlariga va butun insoniy xislatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ijtimoiy muhit bu umumiy holda jamiyat taraqqiyotining ma’lum bosqichida moddiy va ma’naviy hayotiy holatdir. Bu tashqi omil sifatida ko‘rinsa-da nisbiydir. Chunki u jamiyatning ajralmas qismi va o‘z navbatida ijtimoiy muhitning aynan o‘zi. Shaxs kundalik hayotida turli ijtimoiy tizim va jarayonlarning ta’siri ostida bo‘ladi. Bunda u passiv bo‘lmay, bu ta’sirlarning iste’molchisi emas, balki o‘zi ham uning ishtirokchi va ijodkoridir.

Ijtimoiy muhit bir-biriga bog‘lik bo‘lgan ishlab-chiqarish, tashkiliy, ruhiy, mafkuraviy munosabatlar tizimidan iborat bo‘lib, inson o‘z faoliyati bilan ularga daxldordir. Bularning ta’sir darajasiga qarab, inson turli ruhiy holatlarda va atrofidagilarga turlicha munosabatda bo‘ladi. Mazkur tizimlarning insonga ta’sirini o‘rganish va unda shaxsning holatini aniqlash, ularning shaxs shakllanishidagi salbiy va ijobiy ta’sirini belgilash hamda shu asosda ularni ma’lum maqsadga yo‘naltirish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishiga ta’sir mexanizmlarini bilib, uni hisobga olish hamda xulq-atvor normalarini tartibga solish mumkin bo‘ladi. Ijtimoiy birlashma, ya’ni xalq, millat, elatlar uchun ijtimoiy muhit umumiy bo‘lib, birlashma (birlik) qancha kichik bo‘lsa, muhitning ta’siri shuncha kuchayadi. Ijtimoiy birlik jamiyat-hudud-mahalla-mamlakat-viloyat, tuman, korxona-muassasa, jamoa, oilaguruh shaxs doirasida torayib boradi.

Umumiy holda mikro muhitning faoliyat turlariga ko‘ra bo‘lishi mumkin:

- ➲ - mehnat jamoalari-sex, firma, brigada, bo‘lim, qiziqishi bo‘yicha turli klublar;
- ➲ - maishiy-oilaviy: oila, qarindosh-urug‘;
- ➲ - hududiy: mikrorayon, turar-joy, xo‘jalik, yotoqxona, mahalla.

Uning hududiy maydonining torayishi shaxsga ta’sirining oshib borishi bilan xarakterlanadi. Muhitning maydoni torayib borishi ijtimoiy jarayonlarning o‘z ta’sirini emas, balki ularning turli-tuman namoyon bo‘lishi butun borlig‘i bilan shaxsga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Inson aynan shu jarayonlarning ta’sirini yaqqolroq his qiladi. Bundan makro va mikro muhit tushunchasi kelib chiqadi. Makro muhitda ijtimoiy munosabatlar butunligicha ifodalansa, mikromuhitda inson ishtirok etadigan (faoliyat) sohasida ularning konkret namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Mustaqillik sharoitida makromuhitda shaxs

shakllanishi uchun obyektiv shart-sharoit yaratildi. Ammo, jamiyatning shaxs shakllanishi borasida yaratgan shart-sharoiti mikromuhitda hamma vaqt ham to‘la amalgalashirilmaydi. Bu esa obyektiv imkoniyatlar bilan ularni amalgalashirish, tarbiyaviy ishlarni mikromuhitdagi kishilar ehtiyojiga mos kelmasligida o‘z ifodasini topadi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ko‘pgina sifatlari jamiyat hayot tarzi ta’sirida shakllanadi. Kishilardagi mehr-muruvvat, mehr-shafqat, o‘zaro g‘amxo‘rlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehribonlik, aynan turmush tarzi, jamiyatdagi munosabatlarning hosilasidir. Ammo, insondagi takrorlanmas individual xususiyatlar irlari omillar ham oila va mikromuhit ta’sirida shakllanadi.

Shu bilan birga shaxsning mikromuhitga nisbatan mustaqilligini ta’kidlash lozim. Bu mustaqillik uning hayotiy tajribasi, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, o‘zini anglashi, qadriyatlarni qadrlashining natijasidir. Shaxsning mustaqilligi qayd qilinganidek, uning mikromuhitdagi faol hayotiy pozitsiyasiga ham bog‘liq. Shaxsning mikromuhit bilan o‘zaro munosabatidan kelib chiqib tarbiyaviy ishlar mazmuni va uning yo‘nalishini belgilash mumkin. Bunda quyidagilar kelib chiqishi lozim:

- shaxs va mikromuhit xususiyatlarini inobatga olish;
- shaxs va mikromuhitning o‘zaro ta’sirini shunday yo‘naltirish kerakki, shaxsga ijobiy ta’sir etuvchi omillarni kuchaytirish, salbiylarini zararsizlantirish, yoki ta’sirini kamaytirish;
- shaxsning mikromuhitda ijtimoiy tajribasi va faolligini muntazam oshirish asosida jamiyat ijtimoiy munosabatlariga ta’sir ko‘rsatish.

Mikromuhitning insonga ta’siri uni idrok qilish darajasiga, umumiyligi madaniyati va psixofiziologik xususiyatlariga bog‘liq. Mikromuhitning insonga ta’sirining kuchli va ta’sirchanligi individning, uning xarakterining mustahkamligi, hayot tajribasiga, o‘zini anglash darajasi, qadriyatlarini qadrlashi bilan belgilanadi. Shu bilan birga shaxsning sifatlari mikromuhit talabiga mos kelishi ham muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, mikromuhit xarakteri va tipi kishiga har xil ta’sir qiladi.

O‘quv yurtlarida mikromuhit jamoa, yoki guruuh hisoblanadi. Jamoa, yoki guruuh o‘quv yurtining tarkibiy qismi bo‘lib, uning muhitida o‘quvchilar o‘zaro va guruuh rahbari bilan ma’lum munosabatlar tizimida bo‘ladilar. Bu munosabatlar ularning o‘quv faoliyati bo‘lib, shartli ravishda ishlab-chiqarish munosabatlarini tashkil etadi. Bunda har bir o‘quvchi o‘z o‘rniga ega bo‘lib, bilim saviyasi, ijtimoiy ishlarga ishtiroki darajasi va guruhdagi bajaradigan roli jihatidan ma’lum mavqega ega bo‘ladi. Shu bilan birga guruuhda ijtimoiy-siyosiy, rasmiy va norasmiy vazifalari orqali ham ma’lum munosabatlar tizimida bo‘ladi. Bundan tashqari moddiy ahvoli-davlat granti, yoki shartnomaga asosida pul to‘lab o‘qishi ham o‘zaro munosabatlarda ma’lum ta’sir o‘tkazishi mumkin. Shularning hammasi asosida guruuhda shaxslararo munosabatlar o‘rnatalib, guruuh a’zolarining individual-psixologik xususiyatlari va umumiyligi madaniy darajasi bilan belgilanadi.

Bu munosabatlar moddiy va ma'naviy omillarga bog'lik bo'lib, guruhning hozirgi holati uchun obyektiv xarakterga ega, bo'lsa ham ammo, uning har bir a'zosi uchun subyektiv idrok qilinadi. Shuning uchun, guruhda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda guruhdagi vaziyatni-holatni bilish va uni butun guruhda idrok qilinishini e'tiborga olmoq lozim. Bunda guruh rahbarining vazifasi guruhning obyektiv holati bilan tarbiyaviy tadbiriga subyektiv baho berish o'rtaсидаги ziddiyatni bartaraf qilishi zarur. Bu guruhda normal psixologik muhit yaratish uchun zamin bo'ladi. Bu esa o'quvchining guruhda o'z o'mini anglashiga asos bo'lib, barcha munosabatlar bo'yicha uning qiziqishlarini shakllanishiga olib keladi. Insonning ma'lum faoliyatga faolligini uning shaxsiy sifatlari kuchaytiradi. Ammo, uning faolligining kuchayishi faqat shaxsiy sifatlari bilan emas, balki shaxsining yo'nalganligi bilan mos kelsagina kuchli poydevorga aylanadi. Shaxs yo'nalishi asosida uning ehtiyojlari yotib, faolligining bosh manbai bo'lib xizmat qiladi. Ehtiyoj – bu insonning muhtojligini anglashi va o'z boshidan o'tkazishi bo'lib, ayni paytda uning shaxsining rivojini moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlash, tashkil qiladi.

O'z navbatida ehtiyoj bilan muhtojlikni farq ham qilish kerak. Muhtojlik – obyektiv zaruriyat bo'lib, inson uni o'z boshidan kechirishi va anglashi kerak. Paydo bo'lgan ma'lum narsaga muhtojlik kishini uni qondirish yo'llarini faol izlashga undab, uni qo'zg'ovchi – harakatlantiruvchi faoliyat motiviga aylanadi. O'quvchining ehtiyoji o'zi tanlagan kasbi va unga mos keluvchi shaxsiy sifatlarini o'zida rivojlantirish bilan bog'liq bo'lishi kerak. U tanlagan mutaxassisligini o'zi sevib, o'quv yurtiga kirgan bo'lsa, unda shunday ehtiyoj va muhtojlik – zarurat kuchli yo'naltiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchining mutaxassisligini o'rganish bilan bog'liq ehtiyojini qondirishi, yoki unga mos keluvchi sifatlarini egallashi bir onda paydo bo'lib, qondirilib tomom bo'lmaydi. Kasbni o'rganishga bo'lgan ishtiyooq uning turli qirralarini chuqur o'rganishni, o'zini shu kasbga ruhan va mutaxassis sifatida tayyorlash hissiyotini zaruriyatga aylantiradi. Bu esa o'quvchida yangi-yangi ehtiyoj va u bilan bog'lik muhtojlikni keltirib chiqaradi. Bular sabab va oqibat sifatida uni yangi ma'naviy, kasbiy takomillashuvi uchun bilimlarni, axloqiy sifatlarni puxta o'rganishga undovchi motivga rag'batga aylanadi. Ehtiyoj bilan motiv o'zaro bog'liq bo'lib, ehtiyoj motiv-faoliyatga undaydigan sabab tarzida namoyon bo'ladi. Motivlar shaxs yadrosini, uning faolligi yo'nalishini, tashkil etadi. Motivlarning iyerarxik tuzilishi shaxsning tashkil etuvchi tuzilishida markaziy o'rinda bo'lib, uning boshqa xususiyatlariga ancha kuchli ta'sir qiladi [2]. Shuning uchun, o'quvchi shaxsi va faoliyatini tushunishning kaliti, uning motivatsion sohasi, motivlar tizimida belgilovchisi orqali amalga oshirish mumkin. Insoning ehtiyojining konkret namoyon bo'lish shakli qiziqishdir. Qiziqish – bilishga, mehnatga sportga, o'qishga va hokazo bo'ladi. Qiziqish keng tushuncha. U shaxsning bilishga yo'nalganligini, yoki ma'lum faoliyatga doimiy intilishi anglatishi mumkin. Shaxsning yo'nalganligi, yoki qiziqishining namoyon bo'lishi, intilish, reja, orzu istiqbol tarzida namoyon bo'ladi.

Inson rivojlanishining zaruriy sharti uning olamga qiziqishining kengligidir. Bu ayniqsa, qiziqishlar markazlashgan holda asosiy, markaziy biron-bir masalaga yo‘nalgaligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ammo, yosh o‘tishi bilan shaxs qiziqishlari markazlashib, kasbiy qiziqish belgilovchi bo‘lib qoladi. Kasbiy qiziqish belgilovchi bo‘lib, shaxsning ma’lum muhim yo‘nalgaligini belgilab, kasbga doir qiziqishlar bilan bog‘liq bo‘lib qoladi. Ma’lum kasbga qiziqish muhim aloqalar asosini tashkil etib, o‘zini va kasbini takomillashtirish ichki shart-sharoitiga aylanib, o‘z sohasiga (faoliyatiga) muhabbatga aylanadi. Shuni ham inkor qilmaslik kerakki, ma’lum faoliyatga doir qiziqish va layoqatlar shaxsning boshqa sifatlarini rivojlanishiga asos ham bo‘ladi. Ular qobiliyatni shakllanishining faol asosi sifatiga xizmat qiladi. Shaxsning qobiliyati namoyon bo‘lib o‘sishida uning doimiy va kuchli, barqaror qiziqishi muhim rol o‘ynaydi. Ayrim hollarda qiziqish shaxs muvaffaqiyatining muhim omili, bo‘ladi, uni hattoki qobiliyat bilan ham tenglashtiradilar. Chunki barqaror qiziqishlar qobiliyatga aylana oladi. Masalan, o‘quvchining jismoniy tarbiya va sportga doimiy qiziqishi yetuk sportchi bo‘lishi uchun asos bo‘ladi va sportga qobiliyatini rivojlantirishiga yordam beradi. O‘z navbatida qobiliyat qiziqishni doimiy, muntazam bo‘lishiga unga ma’lum yo‘nalish olishga asos bo‘ladi va bir-birini kuchaytiradi. Ma’lum kasbni egallahda qobiliyat bilan qiziqishning o‘zaro bog‘liqligida qiziqishni belgilovchi rol o‘ynashi kuzatilgan. Darsga qiziqish va layoqatning organik birligi qobiliyat rivojlanishiga moddiy asos sifatida shaxsning ma’lum faoliyatga shaxsiy layoqatini tashkil etadi. Layoqat o‘quvchi kasbiy qiziqishining yuqori darajasi hisoblanadi. O‘quvchi o‘zining layoqatini chuqur anglab, o‘zining kasbiy qobiliyatini rivojlantirish ustida faol ish olib boradi. «Inson uchun muhim bo‘lgan narsa – oxir-oqibatda uning motiv va faoliyatining maqsadi sifatida namoyon bo‘lib shaxsning haqiqiy bosh yo‘nalishini belgilaydi», - deb yozadi taniqli psixolog S.L.Rubinshteyn [3, 109].

Jumladan, o‘quvchi faolligi eng avvalo o‘qiyotgan, tahsil olayotgan mutaxassislikni o‘zining organizmi xususiyatlari, hayot idealiga mos tanlashiga bog‘liq. O‘zi hohlamagan, qiziqish havaslariga mos kelmaydigan mutaxassislikni ota-onasini vaziyat va imkoniyat, birovlar maslahati bilan tanlangan o‘quvchida shaxsiy faoliyat ancha past bo‘lishi aniqlangan. Buning ta’siri ostida o‘quvchi guruhdagagi munosabatlar tizimida ham o‘z o‘rnini va mavqeini topa olmaydi. Bu esa uning guruhda o‘zini namoyon qilishga salbiy ta’sir qiladi. O‘zining qiziqish va hayot ideallari asosida mutaxassislikni tanlagan o‘quvchilarning ruhiy holati, kasbga, uni egallahga, guruhdoshlari, qolaversa o‘quv yurti va o‘qituvchilarga munosabati ko‘tarinki bo‘ladi. Kasbni egallah borasidagi harakatlar unga zavq bag‘ishlab, ijodiy izlanishlarga undaydi. Bunday o‘quvchilar o‘qish va ijtimoiy ishda faol, guruhda tashkilotchi bo‘ladilar. Ular o‘qish va tarbiyaviy tashkiliy ishlarga qandaydir bir ichki intilish bilan ishtiroy etadilar.

«Har qanday tarbiyaviy jarayon samaradorligi o‘zining ichki sharoiti va tarbiyalanuvchining axloqiy intilishiga bog‘liq. Insonning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda ishning yutug‘i shu ichki ish bilan hamda tarbiyaning uni yo‘naltirishi, qiziqtirish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bu –asosiy», - deb yozgan edi S.L.Rubinshteyn [3, 138].

O'quvchini kasbni egallash borasidagi intilishlari shaxsiy sifatlariga mos kelib, unga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi motivga aylanadi.

O'rta umum ta'lif maktabida o'quvchilar o'rtasida tarbiyaviy ishni tashkil qilishning samaradorligi jihatidan darsdan so'ng ularning o'qish davridagi yashash joyi oilasi hisoblanadi. Oil ava muktab mikromuhitning o'ziga xos hududiy shakli hisoblanadi. Uning o'quvchi shaxsiga ta'siri shunda namoyon bo'ladiki, o'quvchi ham hayot tajribasi yetarli bo'lmay shaxs va kasb sohibi tarzida shakllanayotgan qarashlari hamda xulq-atvori mutlaq hali bir qolipga kirmagan davrdir. Mikromuhit – darsdan tashqari tadbirlarda, kompyuter xonalarda, do'stlar davrasida ham o'quvchi shaxsiga ta'siri obyektiv xarakterga egaligidan kelib chiqib, u joyda mo'tadil ma'naviy-axloqiy psixologik muhit yaratish belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Buni esa o'rta umumta'lif maktabi rahbariyati, sinf rahbarlari va o'quvchilarning o'zlari birligida yaratishlari kerak. Oиласида yashovchi o'quvchilarning ahil jamoasini yaratish va har bir yashovchiga shu jamoa orqali ta'sir ko'rsatish, belgilangan ichki tartib-qoidalarga, rejimga rioya qilish, o'zaro hurmat asosida yashashga o'rgatish muhim hisoblanadi. Bunda faqat xonalarni toza va ozoda saqlash yetarli emas. Bu rasmiy munosabatlar doirasida bo'lib, eng muhimi yotoqxonada yashovchilar uchun o'ziga xos urfdot, an'analar yaratish asosida o'quvchilarni yangi ishlarga ijobjiy tartib-intizomlarni o'rnatishtga intilishni uyg'otish muhim.

O'quvchi yotoqxonasida olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar tanlangan mutaxassisligi xarakteriga, ularning qiziqishlari va ma'naviy ehtiyojlariga mos kelishi ham ularning ta'sirchanligini oshiradi. Yotoqxonadagi tarbiyaviy ishlarning yo'nalishi o'quvchilarni o'z-o'zini boshqarishga tayyorlashi, ularni bo'lajak kasb sohibi va axloqiy pok inson sifatida shakllanishiga xizmat qilishi lozim. Muhit keng tushuncha sifatida ijtimoiy voqeiylik jamiyatning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, axloqiy ruhiy holatini belgilab unga ta'sir ko'rsatadi hamda kishilar faoliyati orqali o'zi ham o'zgaradi. Shuning uchun, tarbiya va jamiyat taraqqiyoti bir-biriga dialektik bog'liq. Tarbiya jamiyatdan ajralmas. U jamiyat tarixiy rivojlanishining hamma bosqichlarida va har qanday tuzum uchun uning mavjudligi, yashashi hamda taraqqiyotini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Tarbiya jamiyat va siyosiy tuzumlarga bog'liq, ammo, jamiyat tarbiyaga befarq qaray olmaydi. Chunki har qanday tuzum tarbiya orqali o'zining siyosatini, ijtimiy iqtisodiy mafkuraviy, axloqiy qarashlarini jamiyat a'zolariga singdiradi. O'zining maqsad va vazifalarini fuqarolarga singdirish va ular faoliyatini tashkil qilishda tarbiyanadan muhim vosita sifatida foydalaniladi. Bu jihatdan qaraganda tarbiya davlat, uning siyosiy tuzumi bilan ommani bog'lovchi zanjir vazifasini o'taydi.

Inson ma'naviy va moddiy boyliklarining yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lsada, uning ijobjiy insoniy xislatlari (jamiyat mafkurasi, axloqi, dunyoqarashi talablariga mos keluvchi) ko'p jihatdan tarbiyaning mahsuli hisoblanadi. Tarbiya jamiyat talablaridan kelib chiqib, uni rivoji va kuch-qudratini mustahkamlash manbai ham hisoblanadi. Aynan tarbiya

orqali davlat fuqarolariga ta'sir qilib, ma'naviy, ichki ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik qudratini mustahkamlaydi.

Mustaqillik sharoitida tarbiya har qachongidan ko‘ra jamiyat hayotida yanada muhimroq o‘rin egalladi. Shuning uchun, amalda erkin, ozod, mustaqil shaxsni tarbiyalash faqat maktab, maorif, ta’lim muassasalari, ayrim ijtimoiy tashkilotlarning ishi bo‘lmay, butun jamiyatning, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ta’lim-tarbiya bilan faqat ta’lim muassasalari xodimlari emas, balki fuqarolar yig‘inidan (mahalladan) boshlab tuman, shahar, viloyat hokimlari, hukumat va Respublika Prezidenti ham bevosita shug‘ullanadi.

Mustaqillik sharoitida ta’lim-tarbiya, shaxs kamolotiga bu qadar oshirilgan e’tibor berish asosida jamiyatning ma’naviy-axloqiy, mafkuraviy va siyosiy jihatdan mustahkamlash, yoshlar kamoloti orqali Vatan ravnaqini ta’minalash, ilg‘or jahon hamjamiatidan munosib o‘rin egallash yotadi. Bu uzoqni o‘ylab yurgizilayotgan siyosatning mohiyatidan kelib chiqadi. Mustaqil Respublikamiz Prezidenti yoshlar ta’lim-tarbiyasini yangi asosda qurib, yangi shaxs tipini tarbiyalab uning aqliy-axloqiy kamolotiga subyektiv sharoit yaratishni asosiy maqsad qilib qo‘yan. Shu asosda mustaqillik mafkurasi, milliy qadriyatlarimiz va xalqimizning o‘ziga xos mentalitetiga mos insonni shakllantirish vazifasini hal qilish lozim. Insonning jamiyatning hamma sohalarida ma’naviy-iqtisodiy, siyosiy huquq va burchlarini ta’minalab ularni tarbiya orqali tushunib, unga so‘zsiz amal qilishini ta’minalash hozirgi tarbiyaviy jarayonning mazmun va mohiyatini tashkil etadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatdan ajralmas ekan, jamiyat o‘zgarishi bilan uning mohiyati, maqsad va vazifalari, hamda tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabat ham o‘zgarib, ayrimlari muhim ahamiyat kasb etib, oldingi o‘ringa chiqadi. Bunda shaxs shakllanishida hozirgi davr uchun muhim sifat va xislatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shunda shaxs shakllanishida muhim bo‘lgan sifatlar birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Buni hozirgi vaqtida kishilarda ma’naviy-ma’rifiy sifatlarni tarbiyalash dolzarblashganligida ko‘ramiz. Demak, tarbiya tarixiy xarakterga ega. Shuning uchun, uning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning imkoniyatlaridan foydalanish, mohiyatini talqin qilish ham o‘zgaruvchandir. Shu jihatdan «shaxs shakllanishi» va «shaxsning ijtimoiylashuvi» («sotsiallashuv») hamda «ma’naviy-ma’rifiy» tarbiya tushunchalariga izoh berishni o‘rinli deb hisoblaymiz.

«Shaxs shakllanishi» deganda insonning ma'lum xislatlarni egallashi va rivojalmishida ta'sir qiluvchi obyektiv va subyektiv sharoit va omillarning yaxlitlikda amal qilishni tushunish kerak. Bunda agar obyektiv omillar ta'siri kuchli bo'lsa, subyektiv omillar hisobga olinmasa shaxs shakllanishi stixiyali davom etadi. Shaxs shakllanishida stixiyalilik tarbiya jarayonida obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro muvofiqlashmagan yaxlitlikda amal qilganida ham sodir bo'ladi [4]. Inson shaxsini shakllanishida faqat subyektiv omil kuchli bo'lganda ham unga ta'sir qiluvchi shakl va vositalarning ilmiy asoslangan ta'siri pasayadi, bir yoqlamalikka yo'l qo'yadi. Shaxs shakllanishida ta'sir qiluvchi omil va sharoitlarning dialektik birlikda amal qilishi uning komilligini ta'minlashiga asos bo'la oladi.

«Shaxsning ijtimoiylashuvi», «shaxs ma’naviy va ma’rifiy tarbiyasi» tushunchalari o‘zaro bir-biriga yaqin bo‘lib, uning shakllanishida jamiyat taraqqiyotining ma’lum davrlarida (hozirgi vaqtda – o‘tish davrida) kishiga uning talablarini, uning xulq-atvori ahloqi, uchun ijtimoiy mohiyati sifatlarni egallashini va shu asosda o‘zining jamiyat, atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga solishni anglamoq darkor. Insonning ijtimoiylashuvi, yoki ma’naviy-ma’rifiy kamoloti uning hayotining birinchi kunlaridan boshlanib, umrining turli yosh davrlarida susayib, yoki kuchayib davom etishi hamda hayotining oxirigacha mazmunan to‘lishib, unda ijobjiy, yoki hayot tarzi asosida salbiy sifatlar belgilovchi bo‘lishi mumkin. «Shaxs ijtimoiylashuvi» va «ma’naviy-ma’rifiy» kamolotida obyektiv omillar: ijtimoiy tuzum, yashayotgan jamiyat, muhit va ta’lim-tarbiyani tashkil qila olish (davlat, ijtimoiy, yuridik tashkilotlar, ta’lim muassasalari) – subyektiv omil muhim rol o‘ynaydi. Insonning ijtimoiylashuvi va ma’naviy-ma’rifiy kamolotining tezlashuvi darajasi jamiyatdagi hukmron ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘liq bo‘ladi. Insonning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablari va mafkuraviy axloqiy normalarini egallab olishi shu munosabatlar xarakteri bilan belgilanadi. Shunday qilib, shaxs ijtimoiylashuvi va ma’naviy-ma’rifiy kamoloti uning jamiyat siyosiy-huquqiy va xulq-atvor normalarini uzlusiz, ketma-ket ijodiy o‘zlashtirib olishi hamda o‘zining hayotida ularga amal qilish jarayonidir.

Yuqoridagilar bilan birga «shaxsning rivojlanishi», «inson kamolotix» tushunchalari ham mavjud bo‘lib, ular inson ongida va xulq-atvorida birin-ketin, muntazam va ketma-ket bo‘ladigan o‘zgarishlarda o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida insonga mafkuraviy va psixologik ta’sir ko‘rsatib, jamiyat uchun zarur e’tiqod va axloq normalarini singdirish vositasi hamdir. Shaxsning insoniy xislatlari jamiyatning butun ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi ta’siri ostida shakllanadi. Mustaqillik sharoitida fuqarolarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shaklantirish davlat tashkilotlar, ijtimoiy, turli partiya va yoshlar tashkiloti, yoki davlat va nodavlat tashkilotlarining maqsadga qaratilgan, ta’sirchan olib boradigan ma’naviy-ma’rifiy ishlari asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaning ijtimoiy mohiyati yana shundaki, uning maqsad va vazifalari har bir tarixiy davrda jamiyat oldida turgan aniq ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va axloqiy talablar bilan belgilanadi, jamiyat shaxs sifatlari xususiyati va yo‘nalishini belgilab, tarbiya oldiga ularni ijtimoiy buyurtma sifatida qo‘yadi. Buning boisi shuki, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning asosini iqtisodiyot tashkil etadi. O‘z navbatida iqtisodiy rivojlanish va munosabatlar inson ishtiokisiz amalga oshmaydi. Bunda eng muhimi iqtisodiyot inson faoliyati orqali amal qilib, uning mehnatining samarasi hisoblanadi. Shuning uchun, jamiyat iqtisodiy rivojlanishini tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Inson aql-zakovati, ma’naviy dunyosi tarbiya mahsuli sifatida ijtimoiy-iqtisodiy mohiyat kasb etib, jamiyat rivojining katalizatori rolini o‘ynaydi. Mamlakatimiz rivoji kishilarimizning onglilik darajasiga va faol ijodiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, davlat siyosatining mohiyatini anglash hamda iqtisodiy masalalarni yechishga faol ishtiroki bilan belgilanadi. Bu yerdagi ijtimoiy bog‘lanish yana shu bilan belgilanadiki, tarbiya ijtimoiy

ishlab chiqarish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, tarbiyani tashkil qilishda moddiy imkoniyatlar va iqtisodiy baza ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotida tarbiyaning ijtimoiy o‘rnı siyosiy, axloqiy, tashkiliy masalalarni yechishda ham yaqqol ko‘rinadi. Usiz kishilarni g‘oyaviy-siyosiy e’tiqodi, ongliligini muntazam va izchil tarbiyasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu bilan birga hozirgi vaqtida tarbiyaning muhim vazifalaridan biri – kishilarni ma’naviy-ma’rifiy darajasini ko‘tarish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, ilm-fan, ishlab chiqarish texnologiyasi yutuqlarini ularning ma’naviy boyligiga aylantirishdir. Shuning uchun, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatları bilish darjasidan kelib chiqib, tarbiyaviy jarayon sube’ktlari (davlat va nodavlat, jamoat tashkilotlari, o‘quv yurtlari) tarbiyaviy ta’sir usullari, vositalari, shakl va metodlarini, zamon talabiga mos kelishi, kishilarda ma’naviy-ma’rifiy ta’sir qilishning hozirgi vaqtga mos shakllarini qo’llashlarini taqozo qiladi. Bundan tarbiya uni olib boruvchi subyektlarning tashkiliy, xo‘jalik va mafkuraviy faoliyatları bilan chambarchars bog‘liqlikda olib borilishi zarur ekanligini anglash muhim hisoblanadi. Shu bilan birga yana bir muhim talabni ta’kidlash lozim, ya’ni jamiyat rivoji bilan tarbiya subyektlarining bu boradagi faoliyatları ham kuchayishi, jamiyat hamma sohalarida tarbiyaning ahamiyati oshishi hamda u bilan butun jamiyatning jiddiy shug‘ullanishi ijtimoiy taraqqiyotni tezlashuvining garovidir. Shuningdek mustaqillik sharoitida tarbiya siyosatning ustuvor yo‘nalishiga aylanishi tasodif emas, balki qonuniydir. Shuning uchun, jamiyat turli sohalarini rivojlantirish o‘sha joylarda tarbiyani tashkil qilish darajasi bilan belgilanadi.

Jamiyat oldida turgan ijtiomiy-iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy masalalarni tarbiyaviy jarayon subyektlari nazariy va amaliy faoliyatida belgilovchi bo‘lib, bu o‘z navbatida nazariya bilan amaliyot yaxlitligini ta’minlaydi, tarbiyaviy jarayonni amalga oshirish nazariy xulosalarni amaliyot sinovidan o‘tkazib, yangiliklar bilan boyitadi. Shu asosda komil insonni shaklantirish jarayoniga aniqliklar kiritiladi, erkin, ozod, mustaqil fikrlovchi shaxs tarbiyasi nazariyasining qirralari aniqlanadi. Insonning ma’naviy va jismoniy tomonlari uning shaxsiy tizimini belgilovchi bo‘lganligi uchun uning shakllanishida ma’naviy va jismoniy rivojlanish insonning jamiyat rivojlanishi qonunlarini bilishi asosida aqlan teran, jismoniy sog‘lom tanning rivojini yaxlitlikda amalga oshirishni taqozo qiladi. Inson kamoloti asosini aqliy va jismoniy barkamollik tashkil etadi. Shu asosda uning ongining rivoji aqliy va jismoniy kamolotini ta’minlab, unga ijodiy faollik va hayotiy quvonch, kelajakka ishonchni mustahkamlaydi. Bunda aqliy teranlik bilimlarni chuqur va ularni tanqidiy tahlil qilish, ularni ishonch, e’tiqodga aylantirish, ulardan amaliy faoliyatda o‘rinli foydalana olish, mustaqil fikrlash sifatlarini o‘stirishning asosini tashkil etadi.

Insonning aqliy teran fikrashi jismoniy sog‘lomligi va kamolotisiz amalga oshmaydi. Jismoniy sog‘lom odam kishilarni, tabiatga, kasbiga, to‘g‘ri munosabat qila olishi, olamni sog‘lom idroki qilishi mumkin. Xalqda bejiz aytilmagan: «Sog‘-tanda, sog‘lom aql», - deb. Demak, tarbiya jamiyatning shaxs insoniy sifatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondiruvchi kuchli qurolidir. Shuning uchun, jamiyat unga o‘z taraqqiyotining ehtiyoji nuqtayi nazaridan

yondashib, tarbiyaviy jarayonni shaxs shakllanishida ma'lum sifatlarni shakllantirishni kuchaytirish vositasi sifatida qaraydi. Bu muqarar ravishda tarbiyaning jamiyat manfaatlariga xizmat qilish talabidan kelib chiqadi.

Tarbiya jarayonini biryoqlama, faqat subyektning obyektga ta'siri tariqasida qarash kerak emas. Bu eng avvalo subyekt-obyekt munosabatlari bo'lib, tarbiya subyekti faqat davlat, siyosiy partiyalar, jamoat va nodavlat tashkilotlari emas, balki insonning o'zi hamdir. Bunda subyekt va obyekt munosabati shunda namoyon bo'ladiki, tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash birgalikda amalga oshirilishi lozim. O'shanda inson faqat tarbiya obyekti emas, balki uning subyekti sifatida ham o'zini o'zi tarbiyalashi, o'z hatti-harakatlariga tanqidiy qarashi, o'zidagi salbiy xislatlarni bartaraf qilishi imkoniyatiga ega bo'ladi. Faqat shundagina tarbiya kuchli-inson shaxsini o'zgartiruvchi vositaga aylanadi. Inson shaxsini o'zgartirish bir kunda bo'ladigan ish emas, balki uning ongli hayoti va faoliyati hamda jamiyatdagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, mafkuraviy, ruhiy jarayonlar bilan chambarchars bog'liq holda sodir bo'ladi. Insonning komillikka erishuvi jarayon sifatida tarbiyaning umumiyligi maqsadini belgilasada, bu umumiyligi maqsad bosqichma-bosqich, shaxsning yosh davrlari va kasb faoliyati jarayonida kichik davriy maqsadlar («maqsadchalar») tarzida namoyon bo'ladi va ular bosqichma-bosqich yechiladi.

Komil insonni shakllantirish umumiyligi maqsadi jamiyat va shaxs yechishi kerak bo'lgan aniq vazifalarda ijtimoiy taraqqiyot hamda jamiyat ijtimoiy tashkil topishning hamma bosqich va tashkilotlarida, Chunonchi, oila, maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, oliy-o'quv yurti, mehnat jamoalari hamda hududiy mamlakat, viloyat, shahar tuman, miqyosida amalga oshiriladi. Bunda eng muhimi har bir bo'g'inning o'z vazifasini aniq belgilashi va ular faoliyatini o'zaro qismligida. Yirik rus olimlari V.S.Merlin va B.G.Ananyevlarning [5] tadqiqotlari asosida ta'kidlash mumkinki, shaxs rivojlanishi bu insonning psixologik yaxlitligining sifat jihatidan o'zgarishi, uning funksional takomillashuvi, unda harakat tizimi va tayyorgarligining psixik yangi sifatlarining paydo bo'lishi asosida o'z hayotiy muammolarini nisbatan yaxshiroq hal qilishdir. Shaxsiy va muhitning o'zaro ta'siri, maxsus tashkil etilgan va rejalashtirilgan ta'sirlar oqibatida o'quvchi psixikasida sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunda tarbiya psixik rivojlanishining muhim omili sifatida uch bosqichda namoyon bo'ladi. Eng avvalo, ijtimoiy-psixologik bosqichda jamiyat hayot faoliyatining elementi sifatida uning maqsadi ijtimoiy tuzilishi va madaniyatini shakllantirish va rivojini taminlashdir. Ikkinchi bosqich, tashkiliy pedagogik maqsadga qaratilgan bo'lib, jamiyat tarbiya tizimining kishilar bilan o'zaro aloqadorligi tasirida ularga ijtimoiy zarur bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunda obyekt sifatida turli yoshdagi alohida kishilar, yoki jamoalar, guruh bo'lishi va tarbiyaning natijasini tarbiyalanuvchilarining rivojlanishida ko'rish mumkin. Uchinchi bosqich, tarbiya yana psixologik-pedagogik jihatdan amalga oshiriladi. Bunda tarbiyani maqsadga muvofiq tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning o'zaro tasiri tarzida tarbiya maqsadini amalga oshirishga yo'nalganligidir. Bu bosqichda tarbiya obyekti aniq bir tarbiyalanuvchiga, yoki

jamoaga yo'nalgan bo'ladi. Bu bosqichda tarbiyachi va tarbiyalanuvchi jamoa bilan bevosita o'zaro muloqotda bo'ladi. Shuning uchun ham butun tarbiya jarayonini undagi ishtirokchilarning o'zaro tasiri desa bo'ladi.

Bu holatda tarbiyaning ijtimoiy yo'nalishini amalga oshirish uchun tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning yaxshi bilishi va aniq vazifadan kelib chiqib tarbiyaning maqsad va vazifalarini, tarbiyalanuvchilar fikri, munosabatini bilgan holda ular faoliyati hamda muloqotini boshqarishi lozim. Tarbiyaning bu bosqichida tasir bevosita, yoki bavosita (muhitning bir elementi orqali) tarbiyalanuvchi jamoaga yo'naltiriladi. Shu asosda tarbiyaviy faoliyatni shaxs rivojlanishini ijtimoiy ehtiyoj yo'nalishiga mos boshqarish deyish mumkin.

Tarbiya maqsadi pedagoglar tomonidan ikki faoliyat shaklida amalga oshiriladi:

1) ta'lim shaklida, pedagog bilan o'quvchining ketma-ket o'zaro bog'liq harakatlari oqibatida o'quvchining ongli va chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi. Bu yaxlitlikda uchta elementni farqlash lozim: ta'lim mazmuni, ya'ni o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati va ular faoliyatining metodlari va tashkiliy shakllari, ular o'quvchida jamoada ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. Agar bu o'zgarishlar avvaldan loyihalanib, belgilangan bo'lsa ularni ta'lim natijasi sifatida qabul qilish mumkin;

2) o'quvchilarni ta'limdan boshqa faoliyat turlariga jalb qilib, ta'lim jarayonida uncha amalga oshirib bo'lmaydigan qiyin sifatlarni o'stirish.

Ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni jamoaviy chilik, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish uchun ularni kengroq faoliyatga jalb qilish talab qilinadi. Tarbiyaviy ish uchun yetarli sharoit yaratish (sinfni tarkib toptirish), o'qish va undan keyingi o'quvchilar vaqtini to'g'ri tashkil qilish, hamda moddiy baza asosida ta'sirli tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish lozim. Darsdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni kompleksidagi o'qituvchi va o'quvchining o'zaro birgalikdagi faoliyati «tor ma'noda»gi tarbiya hisoblanadi. «Tarbiya keng ma'noda» olib borilishi uchun ularni har ikkala (ta'lim va darsdan tashqari tarbiyaviy ish) shakliga ijtimoiy yo'nalish berish lozim bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan o'qituvchilar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, qator salbiy holatlarni ham ko'ramiz. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik hollarda tarbiyachi-o'qituvchilar o'quv jarayonida ta'lim-tarbiya vazifalarini yaxlitlikda amalga oshrishiga intilmaydilar, yoki ta'limning tarbiyalovchi imkoniyatlaridan to'la foydalana olmaydilar. Buning sababini izlash shuni ko'rsatdiki, aksariyat professor-o'qituvchilar tarbiya nazariyasi, ta'limning tarbiyaviy va o'quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadlarining mohiyat-mazmunini tushunmaydilar. Shuning uchun, o'quv mashg'ulotlari paytida aniq tarbiyaviy maqsadlarni qo'ya olmay, ta'limiy ya'ni o'quv materialini talab darajasida o'quvchilar o'zlashtirishiga asosiy e'tibor beradilar. O'qituvchilar ta'lim mazmuni, shakli va o'qitish metodlarini tanlashda tarbiyaga ularni yo'naltirish, darsda ma'lum munosobatlarni shakllantirish asosida

bilimning tarbiyaviy potensialini ocha olmaydilar. Eng muhimi o'rganilayotgan bilimlarni kundalik hayot, mustaqil Vatanimiz hayotidagi ishlar bilan bog'lamaydilar.

Ko'ryapmizki, tarbiya shaxs shakllanishining yo'naltiruvchi kuchi sifatida jamiyat talablari asosida axloqiy, ijtimoiy-siyosiy sifatlarni hamda to'g'ri kasb tanlab, jamiyatda o'z o'rnini tanishiga zamin hozirlaydi.

### Foydalanaligan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan qurmoqdamiz. «Turkiston» gazetasining muxbiri savollariga javoblar. – Toshkent: O'zbekiston, –1999. –31 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Malakali pedagog kadrlar tayyorlashhamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. // – Toshkent: Xalq so'zi, – 2012-yil, 29-may.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология // Под ред. В.В.Давидова. – Москва: Педагогика, –1991.–480 с.
4. Рубинштейн С.Л. Принципы и пути развития психологии. – Москва: – 1981 г.
5. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Москва: – 1980.
6. Zaripova G.K. Future specialists – spiritual and professional education of secondary school students – a need for the development of our independent country. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 97–105. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3872>.  
[http://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAAJ:VLnqNzywnoUC](http://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAAJ:VLnqNzywnoUC)
7. Zaripova G.K. Umumiyl o'rta ta'limg maktabi o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash tizimida o'z-o'zini tarbiyalashning o'rn. "TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR" "ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ" "EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH." ISSN 2181-1709 (P); ISSN 2181-1717 (E); SJIF: 3.805 (2021). 2023/11. 311-318-betlar.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAAJ:XD-gHx7UXLsC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAAJ:XD-gHx7UXLsC)
8. Zaripova G.K. Педагогический подход в формировании личности учащегося в общей средней школе и его значение лидера в получении профессии. VOLUME 2, SPECIAL ISSUE 10 SEPTEMBER 2023. ISSN: 2181-3515. 8-22-стр. https://t.me/Erus\_uz Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 8–22. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3794>.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAAJ:j8SEvjW1NXcC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAAJ:j8SEvjW1NXcC)
9. Zaripova G.K. Umumiyl o'rta ta'limg maktab o'quvchilarini ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida sinf rahbarining shaxsiy va kasbiy namunasi. "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnal «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ

- АКМЕОЛОГИЯ» международный научно-методический журнал “PEDAGOGICAL ACMEOLOGY” international scientific-methodical journal. №5(7) 2023. 120-129-betlar.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:9Nmd\\_mFXekcC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:9Nmd_mFXekcC)
10. Zaripova G.K., F.F.Norova, T. Subxonqulov. Building the professional competence of globally competitive teachers in digital and information and communication technologies. Journal of Survey in Fisheries Sciences. 10(3S) 2254-2264. 2023. 2254-2264- pages.  
[https://sifisheressciences.com/journal/index.php/journal/article/view/844/837.](https://sifisheressciences.com/journal/index.php/journal/article/view/844/837)  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:-\\_dYPAW6P2MC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:-_dYPAW6P2MC)
11. Zaripova G.K. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini komil shaxs sifatida shakllantirishda o'zi-o'zini tarbiyalashning ma'naviy-pedagogik o'rni. “PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” xalqaro ilmiy-metodik jurnal «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ» международный научно-методический журнал “PEDAGOGICAL ACMEOLOGY” international scientific-methodical journal. №1(3) 2024.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:nrtMV\\_XWKgEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:nrtMV_XWKgEC)
12. Zaripova G.K. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish – ular tarbiyasi samaradorligini oshirishning muhim faktoridir. “TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR” “ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ” “EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH.” ISSN 2181-1709 (P); ISSN 2181-1717 (E); SJIF: 3.805 (2021). 2024/1. 288-296-betlar.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&ccitation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:YohjEiUPhakC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&ccitation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:YohjEiUPhakC)
13. Zaripova G.K. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarini komil shaxs sifatida shakllantirishda o'zi-o'zini tarbiyalashning ma'naviy-pedagogik o'rni. “PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” xalqaro ilmiy-metodik jurnal «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ» международный научно-методический журнал “PEDAGOGICAL ACMEOLOGY” international scientific-methodical journal. №1(3) 2024.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:nrtMV\\_XWKgEC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:nrtMV_XWKgEC)
14. Zaripova G.K., Hazratova R. Development of professional competence of specialists in the training of teachers in digital and information technologies in our society. - Buxoro: Pedagogik Mahorat. 2022. (maxsus son). 36-43- betlar.  
[http://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:nrtMV\\_XWKgEC](http://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:nrtMV_XWKgEC)

7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\_for\_view=1xFAx7AAAAA  
J:PVjk1bu6vJQC;

[http://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:8AbLer7M](http://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:8AbLer7M)  
MksC

15. Zaripova G.K., Hikmatov A. I., Salimova D.B.. IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM, UPGRADING AND RETRAINING OF PEDAGOGIC PERSONNEL IS THE CURRENT DEMAND. "ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal". ISSN: 2249-7137. Vol. 12, Issue 06, June 2022 SJIF 2022 = 8.252. A peer reviewed journal. – Page. 8.  
[http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7954/5040](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7954/5040);  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:Tiz5es2fbqcc](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:Tiz5es2fbqcc)
16. Zaripova G.K., Hikmatov A. I. Education of youth in conditions of national independence using the works of our great scientists. "Asian Journal of Multidimensional Research". ISSN: 2278-4853. Vol. 11, Issue 6, June 2022 SJIF 2022 = 8.179. 38-44-page.  
[http://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/7955](http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/7955);  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:XisMed-E-HIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:XisMed-E-HIC)
17. Zaripova G.K., Н.Ш.Намозов, Э.Л.Қобулова. Фундаментальная классификация электронной коммерции в развитии информационных технологий цифровой экономики. "UNIVERSUM: ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ". Научный журнал. Выпуск: 5(86). Май 2021. Часть 1. – Москва: © ООО «МЦНО», 2021 г. УДК 62/64+66/69. ББК 3. U55. ISSN : 2311-5122. DOI: 10.32743/UniTech.2021.86.5-1.  
<http://7universum.com/ru/tech/archive/category/586>.  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=1xFAx7AAAAAJ:0EnyYjriUFMC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFAx7AAAAAJ&pagesize=80&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFAx7AAAAAJ:0EnyYjriUFMC)